Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 330-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277
ERGASHEV OLLOYOR FURQAT O‘G‘LI
Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlash (ABC) usuli asosida mahsulot tannarxini aniqlash.....284
KAMOLOVA NAZOKAT MALIK QIZI
To‘qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishda suv izi ko‘rsatkichlariga asoslangan yashil marketing vositalaridan foydalanish istiqbollari.....301
USMANOVA NASIBA YUNUSOVNA
O‘zbekiston korxonalarida raqamli innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini strategik boshqarish: muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari.....312
KUVNAKOV XAYDAR KASIMOVICH
O‘zbekistonda cho‘l va yarim cho‘l yaylovlari maydonlaridan samarali foydalanishda qorako‘lchilikning ahamiyati.....324
BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Ekoturizm va uning O‘zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o‘rni.....330
GAO BING, ZHAO YI
Barriers and practice configurations of corporate green management: evidence from semi-structured interviews with operational managers.....338
YUSUPOV SAIDVALI SHUKRULLAYEVICH
To‘qimachilik sanoati korxonalarida innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uslubiyotini ekonometrik modellashtirish asosida takomillashtirish.....350
TAN HONGLIN, LI BING
Efficiency–resilience coupling and spatial spillovers in cross-border arid agglomerations: an analytical framework and testable propositions.....362
SAYFUTDINOV SHUXRATJON SULTONOVICH
Turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....375
BEGLAYEV UÇQUN XURRAMOVIÇ
Hududlar baliqçilik sohasiga xizmat körsatuvçi infratuzilma subyektlarining boşqaruv tizimi va ularning samaradorlikga ta’siri.....382
NIYOZMETOV DONIYOR REJABBAYEVICH
Raqamli texnologiyalar sharoitida ishlab chiqarish omillari samaradorligining o‘zgarishi.....395

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

EKOTURIZM VA UNING O‘ZBEKISTON TURIZM XIZMATLARI BOZORIDAGI O‘RNI

BERDIYOROV BAXTIYOR SODIQOVICH
Alfraganus University, “Xalqaro turizm menejmenti” kafedrasi mudiri, professor v.b.
E-mail: baxtiyorberdyorov@gmail.com
ORCID: 0009-0002-5820-3663

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizmning mohiyati, uning barqaror rivojlanish bilan aloqasi va O‘zbekiston turizm bozoridagi o‘rni o‘rganiladi. 2019–2025 yillardagi tahlil shuni ko‘rsatdiki, sayyohlarning 81% dan ortig‘i qo‘shni mamlakatlardan keladi, ekoturizmga talab yuqori bo‘lgan O‘zbekistondan tashqari mamlakatlarga esa yomon xizmat ko‘rsatiladi. Takliflar SWOT tahlili asosida taqdim etilgan.
Kalit so‘zlar: ekoturizm, barqaror turizm, turizm xizmatlari bozori, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ekoturistik mahsulot, turizm eksporti, mahalliy hamjamiyat, SWOT-tahlil, raqamli marketing, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье исследованы сущность экотуризма, его связь с устойчивым развитием и место на рынке туристских услуг Узбекистана. Анализ за 2019–2025 годы показал, что более 81% туристов прибывает из соседних стран, а дальнее зарубежье с высоким спросом на экотуризм охвачено слабо. На основе SWOT-анализа даны предложения.
Ключевые слова: экотуризм, устойчивый туризм, рынок туристских услуг, особо охраняемые природные территории, экотуристский продукт, экспорт туристских услуг, местное сообщество, SWOT-анализ, цифровой маркетинг, Узбекистан.

Abstract. The article examines the essence of ecotourism, its link with sustainable development and its place in Uzbekistan’s tourism services market. The 2019–2025 data show that over 81% of tourists come from neighboring countries, while the long-haul segment with high ecotourism demand remains underserved. Proposals for the sector are made based on a SWOT analysis.
Keywords: ecotourism, sustainable tourism, tourism services market, protected natural areas, ecotourism product, tourism exports, local community, SWOT analysis, digital marketing, Uzbekistan.

KIRISH

Bugungi kunda jahon turizm bozorida tabiat bilan uyg‘un, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va mahalliy aholiga daromad keltiradigan sayohat turlariga talab tez sur’atlarda o‘smoqda. Ana shunday yo‘nalishlardan biri ekologik turizm, ya’ni ekoturizm bo‘lib, u tabiiy resurslarni asrash va iqtisodiy foyda olishni bir tizimda birlashtiradi [1]. Ekoturizm an’anaviy ommaviy turizmdan farqli ravishda tabiatni o‘rganish, ekologik ta’lim va mahalliy hamjamiyat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yadi [2].

O‘zbekistonda turizm so‘nggi yillarda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylandi. Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respublikaga turistik maqsadlarda 11,7 mln nafar chet el fuqarosi tashrif buyurgan, bu 2024-yilga nisbatan 46,8 foiz ko‘pdir. Turizm eksporti hajmi 4,7 mlrd AQSh dollariga yetgan, 2030-yilgacha esa turistlar oqimini 20 millionga yetkazish maqsad qilingan.

Davlat siyosatida ekoturizmga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda shu kuni qabul qilingan PF-9-son Farmon sohani rivojlantirishning huquqiy asosini yaratdi. 2026-yil sentabrda esa Vazirlar Mahkamasining speleoturizmni jadal rivojlantirish to'g'risidagi qarori bilan 10 ta g'or majmuasi turistik foydalanishga yo'naltirildi. Shu bois ekoturizmning turizm xizmatlari bozoridagi o'rnini ilmiy asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi [5].

Shu bilan birga, turistlar oqimining keskin o'sishi tabiiy hududlarga yuklamani oshirib, ekotizimlar barqarorligi uchun yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik masalasi hamdir. Ekoturizm to'g'ri tashkil etilganda tabiatni muhofaza qilish uchun moliyaviy manba yaratadi, qishloq hududlarida bandlikni oshiradi va madaniy merosni asrashga xizmat qiladi [3; 4].

Tadqiqotning maqsadi – ekoturizmning O'zbekiston turizm xizmatlari bozoridagi o'rni va salohiyatini baholash hamda uni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekoturizm tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biri meksikalik arxitektor va ekolog H.Seballos-Laskurayn hisoblanadi. U ekoturizmni nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ularning tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda madaniy merosidan bahramand bo'lish maqsadida ekologik mas'uliyat bilan amalga oshiriladigan sayohat sifatida ta'riflaydi va muhofaza etiladigan hududlar ekoturizmning asosiy resursi ekanini ta'kidlaydi [1].

Amerikalik tadqiqotchi M.Honey ekoturizmni barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilib, uning yetti asosiy belgisini ajratadi: tabiiy hududlarga sayohat, atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish, ekologik ongni shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish uchun moliyaviy foyda, mahalliy aholining iqtisodiy manfaati, mahalliy madaniyatni hurmat qilish va inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash [2]. Muallif ekoturizm niqobi ostidagi «yashil yuvish» (greenwashing) xavfiga ham e'tibor qaratadi. Avstraliyalik olim D.Weaver (2001) esa ekoturizmni «qattiq» (hard) va «yumshoq» (soft) turlarga ajratib, ekoturistlar segmentini ularning jismoniy faollik darajasi va qulaylikka bo'lgan talabiga ko'ra tasniflaydi.

Mahalliy olimlardan N.Tuxliyev va T.Abdullayeva ekologik turizmning mohiyati, jahon tendensiyalari va O'zbekistonda uni rivojlantirish strategiyasini birinchilardan bo'lib kompleks yoritgan. Mualliflar respublikaning tog', cho'l va daryo landshaftlari ekoturizm uchun noyob resurs ekanini asoslaydi [3]. R.T.Axmedxodjayev muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning marketing jihatlarini o'rganib, ekoturistik klasterlar va turistik qishloqlarni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [4]. B.O'.Abdullayev (2023) ekologik turizm mohiyatini aniqlashning nazariy asoslarini tahlil qilib, tushunchaga ta'lim va ekologik madaniyat elementlarini kiritishni taklif etadi.

Ushbu maqola muallifi B.S.Berdiyorov tomonidan O‘zbekiston sharoitida ekologik turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini takomillashtirish yo‘llari [5] hamda ekoturizmni rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari [6] tadqiq etilgan. Biroq adabiyotlarda ekoturizmning umumiy turizm xizmatlari bozoridagi ulushi va bozor segmentlari bilan bog‘liqligi yetarlicha miqdoriy baholanmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Turizm qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etdi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlarni tahlil qilish (o‘sish sur’ati va o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati – CAGR), tarkibiy tahlil va SWOT-tahlil usullaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirishda kontent-tahlil qo‘llanildi [1; 2; 3]. Turistlar oqimining mamlakatlar bo‘yicha tarkibi «qo‘shni davlatlar» va «uzoq xorij» guruhlariga ajratilib, ekoturizmga yuqori talab bildiruvchi segmentning ulushi baholandi. 2030-yilgi maqsadli ko‘rsatkichga erishish uchun zarur o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati hisoblandi. Tadqiqot davri 2019–2025-yillarni qamrab oladi; COVID-19 pandemiyasi ta’sirida keskin pasaygan 2020–2021-yillar ma’lumotlari solishtirishdan chiqarildi. Natijalar muallifning avvalgi tadqiqotlari [5; 6] bilan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar sonining dinamikasini ko‘rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy fuqarolar soni

Yil	Turistlar soni, mln kishi	O‘tgan yilga nisbatan, %	2019-yilga nisbatan, %
2019	6,7	–	100,0
2022	5,2	–	77,6
2023	6,6	126,9	98,5
2024	8,0	121,2	119,4
2025	11,7	146,8	174,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pandemiyadan keyingi davrda turistlar oqimi to‘liq tiklangan va 2025-yilda 2019-yil darajasidan 74,6 foizga oshgan. 2022–2025-yillardagi o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (CAGR) 31,0 foizni tashkil etdi. 2030-yilda 20 mln turistga erishish uchun esa yiliga o‘rtacha 11,3 foiz o‘sish yetarli bo‘ladi. Demak, miqdoriy maqsad erishiladigan darajada, asosiy masala

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

esa oqim sifatini – turistning sarf-xarajati va qolish muddatini oshirishdadir. Aynan shu jihatdan ekoturizm muhim o‘rin tutadi, chunki ekoturistlar odatda uzoqroq qoladi va mahalliy xizmatlarga ko‘proq mablag‘ sarflaydi [2].



1-rasm. Xorijiy turistlar soni dinamikasi, mln kishi

Turistlar oqimining tarkibiy tahlili muhim xulosalarga olib keladi (2-jadval).

2-jadval

2025-yilda turistlar soni bo‘yicha TOP-10 davlat

Davlat	Turistlar soni, ming kishi	Jamiga nisbatan ulushi, %	Guruh
Qirg‘iz Respublikasi	3300,0	28,2	Q
Tojikiston	2700,0	23,1	Q
Qozog‘iston	2700,0	23,1	Q
Rossiya	984,4	8,4	U
Afg‘oniston	476,7	4,1	Q
Turkmaniston	370,0	3,2	Q
Xitoy	278,9	2,4	U
Turkiya	174,9	1,5	U
Hindiston	80,8	0,7	U
Koreya Respublikasi	46,3	0,4	U

Izoh: Q – qo‘shni davlatlar, U – uzoq xorij. Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda turistlarning 81,6 foizi qo‘shni davlatlarga to‘g‘ri kelgan. Bu turistlarning asosiy qismi qarindosh-urug‘ni ziyorat qilish, savdo va qisqa muddatli safarlar bilan kelishini bildiradi. Ekoturizmga eng yuqori talab bildiruvchi Yevropa, Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika bozorlarining ulushi esa bir necha foizdan oshmaydi. Shuningdek, 2025-yilda bitta turistga o‘rtacha 400 AQSh dollari atrofida turizm eksporti to‘g‘ri kelgan (4,7 mlrd dollar / 11,7 mln kishi). Bu ko‘rsatkich uzoq xorij turistlarini, jumladan ekoturistlarni ko‘proq jalb etish orqali oshirilishi mumkin [4; 5].

O‘zbekiston ekoturizm uchun boy resurslarga ega: Chotqol, Hisor, Zomin va boshqa qo‘riqxonalar, Ugom-Chotqol va Zomin milliy bog‘lari, Orol bo‘yi va Qizilqum cho‘llari, Nurota tog‘lari, Bo‘stonliq tumanidagi tog‘ va suv havzalari shular jumlasidandir [3]. Vazirlar Mahkamasining 978-son qarori bilan 18 ta suv ombori ekoturizmni tashkil etish uchun tadbirkorlarga ochildi. Shunga qaramay, ekoturizm hozircha bozorda alohida brend sifatida shakllanmagan va asosan madaniy-tarixiy marshrutlarga qo‘shimcha xizmat sifatida taklif etilmoqda. Sohaning holatini yaxlit baholash uchun SWOT-tahlil o‘tkazildi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar (S)	**Zaif tomonlar (W)**
Landshaft va bioxilma-xillikning boyligi; madaniy meros bilan uyg‘unlik; davlatning qo‘llab-quvvatlashi (PQ-21, PF-9); vizasiz va elektron viza rejimi.	Tabiiy hududlarda infratuzilma va transportning yetishmasligi; malakali gid-ekologlar tanqisligi; ekoturistik mahsulotlarni sertifikatlash tizimi yo‘qligi; xalqaro brendning sustligi.
Imkoniyatlar (O)	**Xavflar (T)**
Jahonda barqaror turizmga talabning o‘sishi; oilaviy mehmon uylari va agroturizm; raqamli platformalar va sun’iy intellekt asosidagi marketing; xorijiy investitsiyalar.	Ommaviy turizm bosimi ostida ekotizimlarning buzilishi; iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi; «yashil yuvish» xavfi; qo‘shni davlatlar bilan raqobat.

Manba: muallif ishlanmasi.

Ekoturizmning bozordagi o‘rnini aniqlashda uning turlarini va ularga mos hududlarni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda ekoturizm ilmiy, sarguzasht, agroekologik, ornitologik va boshqa turlarga ajratiladi [1]. Respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan tasnif 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Ekoturizm turlari va O‘zbekistondagi namunaviy yo‘nalishlar

Ekoturizm turi	**Namunaviy hudud va yo‘nalishlar**	**Asosiy maqsadli segment**
Tog‘ va trekking turizmi	Bo‘stonliq, Zomin, Nurota tog‘lari	Faol yoshlar, uzoq xorij turistlari
Ilmiy va ornitologik turizm	Qo‘riqxonalar, Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi	Tadqiqotchilar, talabalar, qushkuzatarlar
Cho‘l va sahro turizmi	Qizilqum, Orol bo‘yi hududlari	Yevropa va Osiyo sarguzasht turistlari
Speleoturizm	Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax g‘orlari	Sarguzasht va ilmiy turistlar
Agroekoturizm	Oilaviy mehmon uylari, bog‘ va dehqon xo‘jaliklari	Oilaviy turistlar, ichki turizm
Suv havzalari bo‘yidagi ekoturizm	Suv omborlari va daryo bo‘ylari	Ichki turistlar, dam oluvchilar

Manba: [1; 3; 5] manbalar va normativ hujjatlar asosida muallif ishlanmasi.

4-jadvaldan ko‘rinadiki, ekoturizm turlari turli bozor segmentlariga yo‘naltirilgan. Tog‘, cho‘l va ilmiy turizm asosan uzoq xorij turistlariga mo‘ljallangan bo‘lsa, agroekoturizm va suv havzalari bo‘yidagi dam olish ichki turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Bu esa ekoturizmni faqat eksport xizmati sifatida emas, balki ichki turizm bozorining ham muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi. Ichki turistlar oqimi mavsumiylikni yumshatadi va hududlardagi kichik biznes subyektlariga barqaror daromad manbai yaratadi [4].

Ekoturizmning iqtisodiy samarasi multiplikativ xususiyatga ega. Ekoturist sarflagan mablag‘ning katta qismi transport, joylashtirish, ovqatlanish, gid xizmatlari va hunarmandchilik mahsulotlari orqali bevosita qishloq aholisi daromadiga aylanadi. Shu bilan birga, tabiiy hududlarga kirish to‘lovlari qo‘riqxona va milliy bog‘larni moliyalashtirishning qo‘shimcha manbai bo‘lib xizmat qiladi [2]. Biroq bunday samaraga erishish uchun turistik oqim muhofaza etiladigan hududlarning ekologik sig‘imidan oshmasligi lozim, aks holda ekoturizm o‘z resurs bazasini yemiradi [1; 5].

Xalqaro tajriba ekoturizmni muvaffaqiyatli rivojlantirgan mamlakatlarda uchta umumiy omil mavjudligini ko‘rsatadi: muhofaza etiladigan hududlarning keng tarmog‘i, ekoturistik xizmatlarni sertifikatlash tizimi va mahalliy hamjamiyatning daromad taqsimotida ishtiroki [2]. Kosta-Rika, Keniya va Yangi Zelandiya tajribasida aynan shu omillar ekoturizmni milliy brendga aylantirgan. Mazkur mamlakatlarda tabiiy hududlarga tashrif buyuruvchilar uchun tabaqalashtirilgan kirish to‘lovlari joriy etilgan bo‘lib, tushumlar bevosita qo‘riqlash ishlariga yo‘naltiriladi [1]. O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribani mexanik ko‘chirish emas, balki madaniy-tarixiy turizm bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir: Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarga keluvchi turistlarga yaqin atrofdagi tog‘ va cho‘l hududlariga qisqa ekoturlarni qo‘shish orqali qolish muddatini 1–2 kunga uzaytirish mumkin [5].

Ekoturizm rivojida raqamli texnologiyalarning o‘rni ham tobora ortib bormoqda. Zamonaviy ekoturist sayohatni rejalashtirishda onlayn sharhlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarga tayanadi. Shu sababli ekoturistik mahsulotlarni xalqaro bron qilish platformalarida joylashtirish, ko‘p tilli virtual turlar yaratish va sun’iy intellekt yordamida turistning qiziqishlariga mos marshrutlarni taklif etish bozorga chiqishning eng arzon va samarali yo‘li hisoblanadi [6]. Bu, ayniqsa, cheklangan reklama byudjetiga ega bo‘lgan oilaviy mehmon uylari va kichik turoperatorlar uchun muhimdir.

SWOT-tahlil natijalari O‘zbekistonda ekoturizmning resurs salohiyati yuqori ekanini, biroq uning bozordagi o‘rni infratuzilma, kadrlar va marketing omillari bilan cheklanayotganini ko‘rsatadi. M. Honey ta’kidlaganidek, ekoturizm faqat mahalliy hamjamiyat real foyda olgan va tabiatni muhofaza qilish uchun moliyaviy manba yaratilgan taqdirdagina barqaror bo‘ladi [2]. Shu sababli O‘zbekistonda ekoturizmni turizm xizmatlari bozorining alohida, yuqori qo‘shilgan qiymatli segmenti sifatida shakllantirish lozim. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari, virtual

turlar va turistlar oqimini real vaqtda monitoring qilish tabiiy hududlarga yuklamani boshqarishda samarali vosita bo‘la oladi [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, ekoturizm tabiatni asrash, ekologik ta’lim va mahalliy aholining iqtisodiy manfaatini birlashtiruvchi barqaror turizm shakli bo‘lib, uning asosiy resursi muhofaza etiladigan tabiiy hududlardir [1; 3]. Ikkinchidan, O‘zbekistonga kelayotgan turistlar soni 2022–2025-yillarda yiliga o‘rtacha 31 foizga o‘sgan, biroq oqimning 81,6 foizi qo‘shni davlatlarga to‘g‘ri keladi va bir turistga to‘g‘ri keladigan daromad past bo‘lib qolmoqda. Uchinchidan, ekoturizm uzoq xorij turistlarini jalb etish va turistik oqim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Ekoturizmning turizm xizmatlari bozoridagi o‘rnini mustahkamlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) ekoturistik mahsulot va joylashtirish vositalari uchun xalqaro talablarga mos milliy «yashil sertifikat» tizimini joriy etish – bu «yashil yuvish» xavfini kamaytiradi [2];

2) muhofaza etiladigan hududlarda turistik yuklamaning ruxsat etilgan me’yorlarini belgilash va turistlar oqimini raqamli monitoring qilish [6];

3) mahalliy aholini oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik va gidlik xizmatlari orqali ekoturizmga jalb etish, ekoturizm daromadining bir qismini tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirish [5];

4) oliy ta’lim muassasalarida «ekoturizm menejmenti» va gid-ekolog mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish;

5) Yevropa, Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika bozorlariga mo‘ljallangan, sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan raqamli marketing kampaniyalarini yo‘lga qo‘yish va O‘zbekistonni «madaniy meros + tabiat» brendi ostida targ‘ib qilish [4; 6].

6) Samarqand, Buxoro va Xiva yo‘nalishlaridagi madaniy turlarga yaqin hududlardagi qisqa ekoturlarni qo‘shib, «kombinatsiyalashgan» turistik mahsulotlarni ishlab chiqish va turistlarning qolish muddatini uzaytirish [5].

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi ekoturizmning turizm eksportidagi ulushini oshirish, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish va tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ceballos-Lascuráin, H. (1996). *Tourism, Ecotourism and Protected Areas: The State of Nature-Based Tourism Around the World and Guidelines for Its Development.* Gland, Switzerland: IUCN.

2. Honey, M. (2008). *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* (2nd ed.). Washington, DC: Island Press.

3. Тухлиев, Н., Абдуллаева, Т. (2006). *Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития.* Ташкент: Государственное научное издательство «Ўзбекистон миллий энциклопедияси».

4. Axmedxodjayev, R.T. (2024). O‘zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning marketing jihatlari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil,* 2024-yil, may, 445-b.

5. Berdiyorov, B.S. (2025). O‘zbekiston sharoitida ekologik turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasining takomillashtirish yo‘llari. *Modern Education and Development,* 36(1), 354–358.

6. Бердиёров, Б.С. (2026). Применение и перспективы развития технологий искусственного интеллекта в развитии экотуризма в Узбекистане. *Asian Journal of Multidisciplinary Research,* 3(10), 41–47.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy